

O'ZBEK TILINING BOSHQA TILLARDAN AJRALIB TUIRADIGAN XUSUSIYATLARI.

**G'aybullayeva Gulhayo G'olib qizi
O'zbekistan davlat jahon tillari universiteti
Sharq tillari filologiyasi va tillarni o'qitish
xitoy tili 2 - bosqich talabasi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilning asosiy xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, qolaversa o'zbek tilining tarixi va taraqqiyot bosqichlari xususida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, ijtimoiy hodisa, nutq, davlat tili, umummillat, lotin yozuvi, "So'z latofati", globallashuv.

O'zbek tili xususida fikr yuritishdan avval keling, dastlab til haqida biroz fikr yuritsak. Tilnng asosiy va muhim xususiyati shundan iboratki, til kishilik jamiyatni tomonidan yaratilgan bo'lib, eng muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Tilning ijtimoiy tabiatini uning ayrim shaxsda emas, balki jamiyatda mavjudligini taqozo etadi. Til jamiyatni tomonidan yaratilgan bo'lib, uning taqdiri ham jamiyatni taqdiri bilan chambarchas bog'liqdir. Insonning butun hayoti til bilan bog'liq bo'lib, til yordamida kishilar obyektiv borliqni o'rGANADILAR, o'zaro fikr almashadilar, jamoa bo'lib birlashadilar va mehnat qiladilar. Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy - biologik va fiziologik xususiyatlari (ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanishi va hokazo) tabiat qonunlariga muvofiq, jamiyatga bogliq bo'limgan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so'zlashish na fikrlash uchun kishilik jamiyatni (sotsial muhit) bo'lishi shart. Chunki til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish va fikr almashish ehtiyojlari natijasida paydo bo'lgan.

Til nasldan naslga, avloddan avlodga o'tadigan irsiy hodisa emas, aksincha, til jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Bolaning qaysi tilda so'zlay boshlashi uni o'rabi turgan til muhitiga bogliq. Misol uchun, amerikan bolasi go'daklikdan xitoyliklar orasida tarbiyalansa, u faqat xitoycha so'zlab, o'z ona tilini bilmasligi mumkin. Ammo bolaning biologik belgilari (yuz tuzilishini, soching rangi va hokazolar) o'zgarmagan holda shakllanib boradi. Boshqa bir misol: 1920 yilda Hindistonda ovchilar bir uyada ikki bo'ri bolasi va ikki qizchaga duch kelganlar. Ular (ayniqsa ularning kattasi-Kamola) o'zlarini bo'ri sifatida tutganlar. Kamola bo'rilar bilan 15 yil birga hayot kechirgan. Lekin u gapirishni butunlay bilmagan. Uni "odamlashtirish" juda sekinlik bilan amalga oshgan. Faqat o'rgatishning uchinchi yilida ikki oyoqda turishni (shunda ham orqasidan ushlab turilsa) o'rgangan. Yetti yildan keyingina ikki oyoqda yura boshlagan. Lekin, baribir, yugurish zaruriyati tug'ilsa, emaklab chopgan. Nutqqa o'rgatish yana ham qiyin bo'lgan. To'rt yil davomida faqat olti so'zni bilib olgan. Yetti yil davomida Kamolaning lug'atidagi so'zlar ellikka ham bormagan. 16 yoshida bu qiz o'zini 4 yoshli qiz holida tutgan. Bu misol ham tilning jamiyat bilan bog'liqligini, uni jamiyatdan ajratish mumkin emasligini, tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatib turibdi.

Qolaversa, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida turkiy xalqlar haqida shunday deyiladi: "Ularning o'qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har bir aqli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo'lish uchun eng asosiy yo'l ularning tilida so'zlashishdir, chunki ular bu tilda so'zlashuvchilarga yaxshi qulq soladilar, o'zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular o'z panohida turgan boshqalarining gunohini ham kechib yuboradilar". Demak, qadimdan ota-bobolarimiz o'z tillarini o'ta yuksak qadrlagan, hattoki bu tilda so'zlasha oladiganlarning gunohidan ham kechib yuborgan ekan. Ona tili ular uchun muqaddas hisoblanib, hech qanday boylik yoki manfaat undan ustun bo'lomagan. Qolaversa, Qadimgi turkiy tilning manbalaridan Kul tingga bag'ishlangan yodgorlikning

qiyosiy nashri va til xususiyatlariga bag'ishlangan asar ham aynan O'zbekistonda yaratilganligi so'zimizning yaqqol isbotidir.

Bugungi globallashuv jarayonida, turli tillar qorishib ketayotgan bir vaziyatda Koshg'ariyning yuqorida fikrlari barchamizni ogohlilikka chaqiradi. Ajdodlarimizdan meros bo'lgan bu qadriyatni boy berib qo'ymaslik uchun barcha imkoniyatdan samarali foydalanishga undaydi.

Shunday ekan, til jamiyatda qanday muhim ijtimoiy hodisa bo'lsa o'zbek tili va uning taraqqiyoti ham ham shunday dolzarb ahamiyatga ega. Negaki, o'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, hozirgi kunda ushbu til Yer yuzi aholisining qariyb 50 million aholisi uchun asosiy muloqot vositasidir. Shunday ekan, tilimizning mavqeyiga qaratiladigan e'tibor ertangi avlodning kelajagi haqida qayg'urishimizning muhim asosi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi va nufuzini oshirish, jamiyatning barcha sohalarida faol qo'llanilishiga erishish, yosh avlodni ona tilimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik davri tarixiga nazar soladigan bo'lsak, tilga e'tibor, uning mavqeyini qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yish mustaqillikka erishishning dastlabki qadamlaridir desak adashmagan bo'lamiz. Davlat tilini izchil joriy etish jarayonini takomillashtirish va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga mukammal o'tishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili deb e'lon qilindi. Qonun bilan O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o'zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'ldi. Binobarin, 1953-yilda YUNESKO tashkiloti ekspertlari "davlat tili" va "rasmiy til" tushunchalarini farqlashni taklif etgan. Unga ko'ra Davlat tili - siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda ma'lum bir davlatda integratsiya (birlashtiruvchi) vazifasini amalga oshiradigan, shuningdek ushbu davlatning ramzi sanaladigan tildir. Rasmiy til - davlat boshqaruvi, qonunchilik, sud jarayoni tilidir. 1993-yil 2-sentabrda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bugungi kunda bu ishlarning tadrijiy davomi sifatida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etishni yanada takomillashtirish bo'yicha amaldagi qonun hamda hukumat qarorlari yanada mustahkamlanmoqda.

Davlatimiz rahbari o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kunga bag'ishlangan tantanali marosimda "Dunyo hamjamiyatidan munosib o'rın egallashni maqsad qilib qo'ygan har qaysi davlat, avvalo, o'z xalqining milliy tili va madaniyatini asrab-avaylashga, rivojlantirishga intiladi", deya ta'kidlagan edi.

Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga binoan ona tilimizning istiqboldagi taraqqiyotiga oid ko'plab masalalar o'z yechimini topmoqda. Shu ezgu g'oyaga muvofiq amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi tobora oshib borayotganiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz.

Shu o'rinda O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidovning "So'z latofati" asarida keltirilgan quyidagi jumلالарни келтирив о'tsam. "Ona tili umummillat mulkidir, demak, til oldidagi mas'uliyat ham umummilliyl. Men o'zbekman, degan har bir inson o'zbek tili uchun qayg'urmog'i kerak. Unutilgan so'zlarni tiklash, borini boyitib borish, xorijiy atamalarga munosib istilohlar topish yolg'iz tilshunoslarning emas, millatning ishidir". Bu kabi fikrlar bejiz aytilmagan albatta.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, har qanday til ravnaqi, taraqqiyoti bu millat, jamiyatga bog'liqdir. Zero, til har bir millatning eng qadrli boyligi, uning ma'naviy qiyofasi, madaniyati, ichki dunyosini aks ettiruvchi muhim vositadir.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tili tarixi: filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik/ N. Rahmonov, Q. Sodiqov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. - 224 b.
2. Q. Sodiqov. Ko'k turk bitiglari: matn va uning tarixiy talqini. — Toshkent, 2004; Q. Sodiqov. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning shakllanishi va tiklanishi, Toshkent, 2006.
3. Mahmid Koshg'ariy. Devonu lug'atit-turk. 1jild, Toshkent, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1960.

Foydalanimgan saytlar ro'yxati:

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. <http://library.navoiy>